

**CHARHASH VA QAYTARILISH DAVRLARINING FIZIOLOGIK
XARAKTERISTIKASI
ФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРИОДОВ УСТАЛОСТИ И
ВОССТАНОВЛЕНИЯ
PHYSIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FATIGUE AND RECOVERY
PERIODS**

Sayidaliyeva Roxatoy Zaylobiddinovna Andijon davlat universiteti fiziologiya yo‘nalishi
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Charchashning paydo bo‘lishida muskullarning qon bilan ta‘minlanishi muhim o‘rin tutadi. Statik ish bajarishida muskullarning doim bir xil holatda qisqarib turishi tufayli ularning qon bilan yomon ta‘minlanishi tez charchashni yuzaga keltiradi (masalan, og‘irlik ko‘tarish). Uzoq masofalarga yuguruvchilarda charchash nerv tizimidagi markazlar bilan harakat a‘zolari orasidagi boshqaruv koordinatsiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Bunday charchash yurak qisqarishining kuchsizlanib qolishi, qisqarish sonining esa ko‘payishi va natijada yurak ishi unumdorligining pasayishi bilan xarakterlanadi. SHu bois tananing kislorod bilan ta‘minlanishi pasayib ketadi, qonda anaerob parchalanish mahsg‘ulotlari ko‘payib bu hol esa o‘z navbatida umumiy charchashni chaqiradi.

Аннотация

Кровоснабжение мышц играет важную роль в возникновении утомления. Из-за постоянного сокращения мышц, находящихся в одном и том же положении при статической работе, плохое их кровоснабжение вызывает быстрое утомление (например, поднятие тяжестей). Утомление у бегунов на длинные дистанции обусловлено нарушением координации управления между центрами нервной системы и органами движения. Такое утомление характеризуется ослаблением сердечных сокращений, увеличением числа сокращений и, как следствие, снижением эффективности работы сердца. Поэтому кислородное обеспечение организма снижается, продукты анаэробного распада в крови увеличиваются, а эта ситуация, в свою очередь, вызывает общую утомляемость.

Annatation

Blood supply to the muscles plays an important role in the occurrence of fatigue. Due to the constant contraction of the muscles in the same position during static work, their poor blood supply causes rapid fatigue (for example, weight lifting). Fatigue in long-distance runners is caused by a violation of control coordination between centers in the nervous system and movement organs. Such fatigue is characterized by the weakening of heart contractions, the increase in the number of contractions and, as a result, the decrease in the efficiency of heart work. Therefore, the oxygen supply of the body decreases, the products of anaerobic decomposition in the blood increase, and this situation, in turn, causes general fatigue.

Kalit so‘zlar: kuchsizlanish, qisqarish, statik ish, qatarilish, repressiya, induksiya

Ключевые слова: ослабление, редукция, статическая работа, сопротивление, репрессия, индукция.

Key words: weakening, reduction, static work, resistance, repression, induction

KIRISH

CHarchash muhim biologik jarayon hisoblanadi, u faol holatdir, ya’ni charchash oqibatida ro‘y beradigan murakkab fiziologik va biokimyoviy o‘zgarishlar oqibat natijada ish qobiliyatining ko‘tarilib borishiga olib keladi. Masalan, og‘ir mashq qilib charchash va yaxshi dam olish tufayli kishining mehnat qilish qobiliyati o‘sib boradi, kuchayadi. Bajariladigan jismoniy harakatlar xilma-xil bo‘lganligi sababli charchash va uning kelib chiqish sabablari ham turlichadir. Masalan, og‘ir atletikachi bilan futbolchida yuzaga keladigan charchash fiziologik va biokimyoviy nuqtai nazardan bir-biridan farq qiladi.

CHarchash jarayonining mexanizmlari bilan yaqindan tanishish uchun ergografda oddiy charchashni sinab ko‘rish mumkin. Bunda ish bajarilishi davomida barmoq kuchi pasayib, qisqarish amplitudasi hamda qisqarish soni kamayib boradi. Bu muskul faoliyatida (alohida olingan muskul guruhlarida yuzaga kelgan charchashda) charchash nerv markazlarida, nerv-muskul sinapslarida va muskulning o‘zida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli sodir bo‘ladi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Sport amaliyotida qaytarilish davri ham muhim fiziologik-biokimyoviy jarayon bo‘lib odatda jismoniy faoliyat to‘xtaganidan keyin ma’lum vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladi. Qaytarilish davrida uchta muhim fiziologik – biokimyoviy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Birinchidan, sarf qilingan energiya qayta tiklanib uning o‘rni qoplanadi, ikkinchidan moddalar almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan keraksiz qoldiqlar organizmdan chiqaruv a‘zolari orqali ajraladi va uchinchidan organizmning ichki muhiti tiklanadi.

MATERIAL VA TADQIQOT USLUBLARI

Sportchilarning charchash sabablari va ularni yo‘qotish usullari va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va uni xarakterli o‘yinlar orqali mashg‘ulotlar yordamida shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat

NATIJALAR VA MUXOKAMALAR

qayd qilinganidek sportchi organizmda diskoordinatsiya (ma’lum jismoniy faoliyatini amalga oshirish jarayonida, organizmdagi barcha tizim va a‘zolarining markaziy nerv sistemasi va endokrin tizimi tomonidan tegishli holda boshqarib borilishi koordinatsiya, uning izdan chiqishi - diskoodinatsiya), chaqiruvchi va vaqtincha ish qobilyatini pasaytiradigan fiziologik jarayon bo‘lib, u muhimbiologik ahamiyatga ham ega. CHarchash tufayli markaziy nerv tizimi va butun bir organizmning o‘ta darmon qurishi va bu tufayli sodir bo‘ladigan qaytarilmas o‘zgarishlardan tana saqlab qolinadi. SHu narsa muhimki charchashda organizmdagi ishga sarflanadigan mavjud energiya, oldin aytilganidek tamoman tugaydi deb xulosa qilish noto‘g‘ri, tegishli miqdordagi zahira energiya odam charchash oqibatida hushdan ketib yiqilganida ham butunlay tugamaydi.

Qaytarilib turiladigan va unchalik kuchli bo‘lmagan charchash organizm ish qobiliyatining oshib borishiga zamin tayyorlaydi. Unchalik og‘ir bo‘lmagan charchashdan keyin dam olish paytida tananing energiya beruvchi zahira moddalari(masalan, ATF, kreatinofosfat, glikogen va boshqalar) oldingisiga qaraganda ko‘proq to‘planadi. Bu holat esa navbatdagi mashq payti organizmning ancha faol ishlashiga olib keladi. SHu yo‘l bilan sport natijalarining asta-sekin oshib borishi kuzatiladi.

CHarchash elementlari kuchli bo‘lganida ham, juda yuzaki bo‘lganida ham mashq qilish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Ba‘zan tezroq istalgan natijaga erishish uchun sportchi haddan tashqari ko‘p mashq qilib og‘ir charchaydi. Bunday mashq qilishdan ijobiy natija kutib bo‘lmaydi, boz ustiga sportchi organizmida qaytarilmas o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Oqibat natijada unda mashq qilishga nisbatan bo‘lgan ishtiyoq yo‘qoladi, majburiy holda

shug‘ullanish esa tana funksional holatlarida bir qator salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA

Xozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lmish sportchilarning charchashini oldini olishga qaratilgan. Fiziologik nuqtai nazardan ushbu ilmiy ishda tananing toliqishi yoki muskullarda kechadigan jarayonlar ochib berilgan. Asosan respondent bolalar yoki sportchilar bilan harakatli o‘yinlarning mohiyati, ularning ahamiyati haqida keng tushintirish ishlari, suhbatlar o‘tkazilmasligi ma’lum bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры – Т.: Издательство им. Ибн Сино, 1991 г
2. Беляев А.В. Тренировочный эффект игровых упражнений волейболистов. //Метод.рекомендации. М., 1988. - 19с.
3. Былеева Л.В., Яковлев В.Г. Подвижные игры. М.: Физкультура и спорт, 1959. - 142с
4. Былеева Л.В., Коротков И.М. Подвижные игры. М.: Физкультура и спорт, 1982. – 222с.